

### DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Bekbosinova Qizlarخان Erbosinovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorauzak tumani*

*kasb-hunar maktabi*

*Informatika va Axborot Texnologiyalari fani o'qituvchisi*

*Erejepova Gulshat Shamuratovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani*

*kasb-hunar maktabi*

*Informatika va Axborot Texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash imkoniyatlari, interfaol metodlar turlari, ayrim metodlar sharhi, matematika darslarida ulardan foydalanish usullari, ularning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, usullar, didaktik o'yinlar, interfaol ta'lim, boshlang'ich ta'lim, dars, o'quv jarayoni, noan'anaviy o'qitish.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar - shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro tasiridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", yani "Inter" - o'zaro, "akt" - harakat, tasir, faollik ma'nolarini beradi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Interfaol metodining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;
3. O'z-o'zini fikrlashga majbur etish;

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

4. Faollashtirish;
5. O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;
6. Do'stona munosabatlarni shakllantirish.
7. Refleksiya

Interfaol metodlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- dars mazmuniga mos kelishi;
- o'quvchilarning imkoniyatlariga to'liq mos kelishi;
- ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga yo'nalganligi;
- o'quv jarayonini tashkil etish shakllariga mos kelishi; Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad:

Mustaqil fikrlashni o'rgatadi; ko'p tarmoqli; soda va osson; bilim boyligini oshiradi; vaqtdan yutadi; qiziqarli o'tadi; dars samaradorligini oshiradi; dunyoqarashni kengaytiradi; tafakkurni rivojlantiradi; xotirani kuchaytiradi; izlanishga chorlaydi; har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi; o'quvchilar diqqatini darsga qaratadi va hokazo.

Interfaol metod va usullar:

- |                              |                               |
|------------------------------|-------------------------------|
| - Juftlikda ishlash;         | - Karusel;                    |
| - Kichik guruhlarda ishlash; | - Akvarium;                   |
| - Tugallanmagan gaplar;      | - Aqliy hujum;                |
| - Broun harakati;            | - Daraxt yechimi;             |
| - O'z nomimdan so'zlayman;   | - Rolli o'yinlar;             |
| - Press metod;               | - O'z pozitsiyasini egallash; |
| - Munozara;                  | - Debatlar;                   |
| - Katta davra;               | -“BBB” metodi;                |
| -Klaster;                    | -Blist-o'yin;                 |
| -Zinama-zinaz                | -Baliq skleti v.b.            |

Quyida ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

"5x5x5" metodi (ko'pgina adabiyotlarda 6x6x6 metodi bayoni berilgan)

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 25 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi

imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. "5x5x5" metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har

birida 5 nafardan ishtirokchi bo'lgan 5 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 5 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 5 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

"5x5x5" metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- Guruhlarning har bir a'zosini faol bo'lishga ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi;

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

"5x5x5" metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarini maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf matematika darslarida "5x5x5" metodi yordamida mashg'ulotni quyidagi tartibda tashkil etish mumkin:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 5 ta stol atrofida 5 tadan stol qo'yib chiqadi.
2. O'qituvchilar o'qituvchi tomonidan 5 ta guruhga bo'linadilar. O'qituvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 5 ta stolning har biriga muayyan matematik objekt (masalan, kub, shar, konus, silindr, parallelepiped) qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kub, shar, konus, silindr, parallelepiped surati tasvirlangan (jami 25 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'qituvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofida qo'yilgan stoldan joy egallaydi.
3. O'qituvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.
5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 5 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan



so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari) ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

### "Aqliy hujum" metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi.

Dars jarayonida "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O'quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi-yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.
3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asosla-nishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.
4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, o'quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

### "Klaster" metodi

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat kiladi.

"Klaster" metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning

majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” usuli- bu metoddan ham barcha darslarda foydalanish o'rinli hisoblanadi. Bunda doira ichida mavzu nomi yoki mavzu mazmunining asosi bo'lgan so'z yoziladi, doiradan nurlar chiqqan bo'ladi, nurlarning har birida shu mavzuga oidi turli ma'lumotlar yozish kerak bo'ladi. Bu metodda mustahkamlash darslarida foydalanilsa ko'proq samara beradi.

“BBB”- bu metoddan barcha darslarda foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar dars boshida “Bilaman” qismiga mavzuga oid o'zlari bilgan ma'lumotlarni va “Bilib olmoqchiman” qismiga shu mavzuga oid qanday ma'lumotni bilib olmoqchi ekanliklarini yozadilar. Dars so'ngida esa “Bilib oldim” qismida bugun shu mavzu doirasida qanday ma'lumotlarga ega bo'lganliklari yoziladi.

Bu metodni boshlang'ich sinflarida o'tkazish ko'p hollarda to'g'ri bo'lmaydi. “Debat” usuli – bunda o'qituvchi bitta muammoli vaziyat (savol) beradi o'quvchilr 2 guruhga bo'linib u vaziyatni hal qiladilar. Bu metod o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin bayon eta olish, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

“Blits-o'yin” metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

Amaliyot davrida qo'llanilgan quyidagi didaktik o'yinlar dars amadorligini oshirishga imkon berdi.:

-Omadli baliqchalar;

-Quvnoq pochta;

O'rmonga sayohat .

Bu didaktik o'yinlar o'quvchilarga manzur bo'ldi, ularning darsga qiziqishlari ortganini, o'yinga faol ishtirok etishganini kuzatdik..

“Omadli baliqchalar” o'yini- bunda baliqchalar va dengizning rasmi bo'ladi. Baliqchalarning orqasida savollar yoziladi, agarda o'quvchilar savollarga javob bera olsalar dengizga tushadi, javob bera olmasalar dengizga tusha olmaydi.



“Quvnoq pochta”- bu didaktik o'yin quyidagicha olib boriladi: bunda katta qog'ozda turli kanvertchalar bo'ladi, ularni har birida savol hamda rag'bat uchun kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar savolga javob bera olsalar rag'bat kartochkasini olishlari mumkin bo'ladi.

Dars o`rnatish jarayonida ta'limning interfaol metodlaridan unumli foydalanish, o`rnatilgan materialni yaxshi eslab qolishga, mustaqil fikrlay oladigan o`rnatuvchining shakllanishiga, ta'lim mazmunini o`zlashtirishga yordam beribgina qolmasdan, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashning shakllanishiga, rivojlanishiga yordam beradi. O`z-o`zini baholash o`sadi, muloqotga kirishish ko`nikmasi takomillashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." Web of Scientist:

International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.

2. Adizova, **Nodira**. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O`RNVCHILAR NUTQINI O`RNVIRISH OMILLARI: XORAZM MA`MUN

AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

3. ADIZOVA, Nodira. "TOPONIMLAR TARKIBIDA TOPOASOS, TOPOFORMANT HAMDA INDIKATOR TUSHUNCHALARI (BUXORO TUMANI MISOLIDA)." EDAGOGIK AHORAT: 47.

4. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O`RNVCHILAR NUTQINI O`RNVIRISH OMILLARI: XORAZM MA`MUN

AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

5. Kasimov F., Kasimova M., Uktamova D. Specific principles for constructing a system of educational tasks //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 211.

6. Qosimov F. M., Qosimova M. M. MATEMATIKADAN IJODIY O`RNV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.

7. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDI ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O`RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. –

№. 4. – C. 358-362.